



## BOLA TARBIYASIDA OILANING MUHIM ROLI (ALISHER NAVOIY ILMIIY-ADABIY MEROSI ASOSIDA)

Nargiza Ergasheva P.F.F.D. (PhD)

Oriental Universiteti Dotsenti

### ABSTRACT

This article provides a scientific and theoretical analysis of the important role of the family in child upbringing based on the pedagogical and moral views of Alisher Navoi. It reveals the significance of the family environment, parental responsibility, and the influence of moral and spiritual values on a child's personal development. The ideas of morality, education, kindness, and the perfect human being presented in Navoi's works emphasize the leading role of the family in upbringing. The relevance of these views in modern educational practice is substantiated.

**KEY WORDS:** Child Upbringing, Family, Alisher Navoi, Parental Responsibility, Moral Education, Ethics, Perfect Human.

### Annotatsiya

Mazkur maqolada bola tarbiyasida oilaning muhim o'rnini Alisher Navoiy asarlaridagi tarbiyaviy va axloqiy qarashlar asosida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Oilaning bola shaxsini shakllantirishdagi ta'siri, ota-onaning mas'uliyati, oila muhitining ma'naviy-ahloqiy ahamiyati ochib beriladi. Navoiy asarlarida ilgari surilgan odob, axloq, ilm-ma'rifat, mehr-oqibat va komil inson g'oyalari bola tarbiyasida oilaning yetakchi omil ekanini asoslab beradi. Maqolada ushbu qarashlarning zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonidagi dolzarbligi yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** bola tarbiyasi, oila, Alisher Navoiy, ota-ona mas'uliyati, ma'naviy tarbiya, axloq, komil inson.

**Аннотация:** В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется важная роль семьи в воспитании ребёнка на основе педагогических и нравственных взглядов Алишера Навои. Раскрывается значение семейной среды, ответственность родителей, влияние духовно-нравственной атмосферы семьи на формирование личности ребёнка. Идеи морали, образования, доброты и совершенного человека, отражённые в произведениях Навои, доказывают ведущую роль семьи в воспитании подрастающего поколения. Обосновывается актуальность этих взглядов в современной системе воспитания.

**Ключевые слова:** воспитание ребёнка, семья, Алишер Навои, ответственность родителей, духовное воспитание, мораль, совершенный человек.

Bola tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Inson shaxs sifatida shakllanishida eng muhim muhit – bu oila bo'lib, unda bolaning dunyoqarashi, axloqi, odobi va ma'naviy qadriyatlarini shakllanadi. Shu sababli oilaning tarbiyaviy roli barcha davrlarda mutafakkirlar e'tiborida bo'lib kelgan. Sharq uyg'onish davrining buyuk namoyandasi Alisher Navoiy ham oila va tarbiya masalasiga alohida ahamiyat bergan. Alisher Navoiy asarlarida inson kamoloti, odob-axloq, ota-ona mas'uliyati va oilaviy munosabatlar chuqur falsafiy va badiiy tarzda yoritiladi. U komil inson tarbiyasini jamiyat taraqqiyotining asosi deb biladi va bu jarayon avvalo oiladan boshlanishini ta'kidlaydi. Shu jihatdan Navoiyning qarashlari bugungi tarbiya tizimi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. **Alisher Navoiy qarashlarida oila va tarbiya tushunchasi:** Alisher Navoiy oila muhitini inson tarbiyasining birlamchi maktabi sifatida baholaydi. Uning fikricha, bola ilk axloqiy tushunchalarni, odob qoidalarini va insoniy fazilatlarini avvalo oilada o'zlashtiradi. "Mahbub ul-qulub" asarida Navoiy inson axloqining shakllanishida tarbiya va muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi.

'Bu gulshan ichraki yoqdur baqo guliga sabot,  
Ajab saodat erur qolsa yaxshilik bila ot'.

Navoiy uchun oila – bu nafaqat qon-qarindoshlik rishtalari, balki mehr, hurmat va mas'uliyat mujassam bo'lgan muqaddas maskandir. U ota-onaning farzand oldidagi burchini faqat moddiy ta'minot bilan emas, balki ma'naviy yetakchilik bilan bog'laydi. **Ota-onaning bola tarbiyasidagi mas'uliyati:** Alisher Navoiy asarlarida ota-onaning farzand tarbiyasidagi o'rnini alohida ulug'lanadi. U ota-onani bolaning birinchi ustozlari deb biladi. Bola ota-onaning xatti-harakatlarini, muomalasini, so'zlashuv madaniyatini bevosita o'zlashtiradi. Shu sababli Navoiy ota-onaning axloqiy namunasi tarbiyada hal qiluvchi omil ekanini uqtiradi. Navoiy johil, beparvo ota-onani qoralab, bunday muhitda tarbiya topgan bolaning kamoloti qiyin kechishini ta'kidlaydi. U farzand tarbiyasida mehr bilan bir qatorda talabchanlik ham zarur ekanini ko'rsatadi. Jumladan u shunday misralarni yozib qoldirgan;



“Boshi fido ayla ato qoshig’a,  
Jismni qil sadqa ano boshig’a.  
Ikki jahoningga tilarsen fazo –  
Hosil et ushbu ikkisidin rizo.  
Tun-kununga aylagali nur fosh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.  
So’zlaridin chekma qalam tashqari,  
Xatlaridan qo’yma qadamnashqari.”<sup>ii</sup>

**Oilada axloqiy fazilatlarini shakllantirish:** Alisher Navoiy axloqiy tarbiyani inson kamolotining asosi deb biladi. U halollik, rostgo’ylik, kamtarlik, sabr-toqat, mehr-shafqat kabi fazilatlarini oilada singdirish zarurligini ta’kidlaydi. “Hayrat ul-abror” dostonida axloqli inson jamiyatning eng katta boyligi sifatida tasvirlanadi. Bola ushbu fazilatlarini oiladagi munosabatlar orqali anglaydi. Ota-onaning bir-biriga bo’lgan hurmati, kattalarga ehtiromi va boshqalarga munosabati bola axloqining shakllanishida muhim o’rin tutadi.

“Ista ato yolida fido jon qimoq,  
Qulluq anog’a ham ulcha imkon qilmoq.  
Zuhdi adab istasang faravon qilmoq,  
Bil oni ato-anog’a ehson qilmoq.”<sup>iii</sup>

**Oilada ilm-ma’rifatga munosabat:** Ilm-ma’rifat Alisher Navoiyning tarbiyaviy qarashlarida markaziy o’rin egallaydi. U ilmni insonni jaholatdan saqlovchi nur sifatida talqin qiladi. Bola ilmga bo’lgan dastlabki munosabatni ham oilada shakllantiradi. Navoiy ilmli, ma’rifatli ota-onaning farzandi ham ilmga chanqoq bo’lib voyaga yetishini ta’kidlaydi. Oilada kitobxonlik muhiti, bilimga hurmat bola tafakkurining rivojlanishiga xizmat qiladi. **Mehr-oqibat va insonparvarlik tarbiyasi:** Alisher Navoiy insonparvarlik g’oyalari tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biri sifatida ko’radi. U mehr-oqibat, saxovat va boshqalarga yordam berishni insoniylik mezoni deb biladi. Bu fazilatlar eng avvalo oilada shakllanadi. Oilada mehr bilan tarbiyalangan bola jamiyatda ham bag’rikeng, mehribon va ijtimoiy faol bo’lib ulg’ayadi. Navoiy asarlarida bu g’oya ko’plab badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. **Oilalar tarbiyasining zamonaviy ahamiyati:** Bugungi globallashuv sharoitida oilaning tarbiyaviy roli yanada muhimlashib bormoqda. Axborot oqimi kuchaygan bir paytda bolaning to’g’ri yo’l topishi uchun mustahkam oilaviy tarbiya zarur. Alisher Navoiy qarashlari zamonaviy tarbiya tizimida oilaning yetakchi o’rni saqlanib qolishi lozimligini ko’rsatadi. Milliy va ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiya topgan bola jamiyatning barkamol a’zosiga aylanadi.

“Kamol et kasbikim, olam uyidin  
Sanga farz o’lmag’ay g’amnok chiqmoq.  
Jahondin notamom o’tmak biaynih  
Erur hammomdin nopok chiqmoq.”<sup>iv</sup>

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasida oilaning muhim roli Alisher Navoiy asarlarida chuqur ilmiy va ma’naviy asoslangan. Oila bolaning axloqiy, aqliy va ma’naviy kamolotida hal qiluvchi muhit hisoblanadi. Navoiy ilgari surgan ota-ona mas’uliyati, ilm-ma’rifat, axloq va mehr-oqibat g’oyalari bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Ushbu qarashlar asosida tashkil etilgan oilaviy tarbiya barkamol avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Alisher Navoiy. *Mahbub ul-qulub*. – T.: G’. G’ulom nomidagi nashriyot.
2. Alisher Navoiy. *Hayrat ul-abror*. – Toshkent.
3. Alisher Navoiy. *Nasoyim ul-muhabbat*. – Toshkent.
4. Alisher Navoiy. *Majolis un-nafois*. – Toshkent.
5. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent.
6. Yo’ldoshev J., Usmonov S. *Pedagogika va tarbiya nazariyasi*. – Toshkent.
7. O’tkir Rahmatov *Adabiyat gulshani*. – T.: “Sharq”, 2013.-125 bet
8. A.Raimov, N.Raimova *Hikmatlar shodasi*. Toshkent: “Ozbekiston,” 2012. 5 bet

<sup>i</sup> A.Raimov, N.Raimova *Hikmatlar shodasi*. Toshkent: “Ozbekiston,” 2012. 5 bet

<sup>ii</sup> O’tkir Rahmatov *Adabiyat gulshani*. – T.: “Sharq”, 2013.-59 bet

<sup>iii</sup> O’tkir Rahmatov *Adabiyat gulshani*. – T.: “Sharq”, 2013.-57 bet

<sup>iv</sup> O’tkir Rahmatov *Adabiyat gulshani*. – T.: “Sharq”, 2013.-35 bet